

ZAMONAVIY TA'LIMDA BO'LAJAK MUTAXASSISLARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

Matkarimova Ashurxon Ismoilovna,
Andijon davlat chet tillari instituti
Ingliz tili amaliyoti kafedrası v.b. professori

Annotatsiya: Ushbu tezis zamonaviy ta'limda bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda e'tibor berilishi kerak bo'lgan vaziyatlar hamda axborot texnologiyalari, raqamlashtirish kabi holatlarni oydinlashtirishga qaratilgan.

Kalit so'z va iboralar: zamonaviy ta'lim, kasbiy kompetensiya, kasbiy muloqot, motivatsiya, uzluksiz ta'lim, integratsiya, madaniyat, shaxs.

Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, fan- texnika va texnologiyalarning rivojlanishi yosh avlodning o'zgaruvchan dunyoda raqobatbardosh bo'lishi fanlarni mukammal egallashni taqozo etadi, bu esa ta'lim tizimiga, jumladan, ingliz tilini o'rgatish bo'yicha ham xalqaro tajriba va andozalarni joriy etish orqali ta'minlanadi.

Ma'lumki, ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tadbiiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol, yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi svilizatsiya kuchaygan davrda har qaysi jamiyat kreativ shaxslarga ehtiyoj sezadi. Bu tabiiy hol albatta. Chunki dunyoda har daqiqada sodir bo'layotgan o'zgarishlar shuni taqozo qilmoqda.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi,

shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini ham bajaradi. Bugungi kunda ta'limda «Aqliy hujum», «Fikrlar hujumi», «Tarmoqlar» metodi, «Sinkveyn», «BBB», «Beshinchisi ortiqcha», «6x6x6», «Bahs-munozara», «Rolli o'yin», FSMU, «Kichik guruhlarda ishlash», «Yumaloqlangan qor», «Zigzag», «Oxirgi so'zni men aytay» kabi zamonaviy texnologiyalarining faol qo'llanilishini juda yaxshi bilamiz. Biroq shular barobarida dars jarayonlarida didaktik o'yinlar ham faollikdan qolishmaydi. Boshlang'ich ta'limda o'yin ijodiy faoliyatning bir shaklidir. Bunda o'quvchi ijtimoiy va moddiy borliqni bilish hamda anglash asosida emotsional-hissiy, intellektual-axloqiy rivojlanadi.

Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish dunyoda yuzaga kelayotgan ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy muammolarning keskinligi bilan bog'liq.

Zamonaviy oliy ta'lim har tomonlama bilimga ega, yangicha fikrlovchi, kasbiy muammolarni mustaqil hal qilishga tayyor, professional manevrga ega bo'lgan malakali mutaxassislarni tayyorlashning maqbul usullarini topishga qaratilgan.

Mamlakatimiz sharoitida kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirish yagona ta'limiy, axloqiy, kasbiy, madaniy makonni saqlab qolish omili hamda jahon ta'lim makoniga qo'shilib ketish omiliga aylanadi.

Oliy ta'limda kadrlar tayyorlash jarayonini an'anaviy yo'nalishlari tizimida kasbiy kompetensiyani shakllantirishga yo'naltirish institutda talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga qat'iy yangi yondashuvlarni talab qiladi, bu o'z navbatida kasbiy muloqot instrumentiga aylanadi, bo'lajak mutaxassislikni o'rganish uchun motivatsiyani oshiradi.

Institutdagi ilmiy-tadqiqot faoliyati kadrlar tayyorlashning muhim qismi, uzluksiz ta'lim tizimidagi ko'p bosqichli jarayondir. U fanlararo integratsiya asosida shakllanib, yuksak ijtimoiy va kasbiy madaniyatga ega bo'lgan ko'p qirrali intellektual shaxsni shakllantirishni ko'zda tutadi. Shu bilan birga, ilmiy-tadqiqotga tayyorgarlik talabalarning individual xususiyatlarini maksimal darajada hisobga

olishni ta'minlashga imkon beradi; ta'lim maqsadlariga, ta'lim oluvchilarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga va o'qitish mazmunining o'ziga xos xususiyatlariga mos keluvchi tashkiliy-pedagogik shakllar va o'qitish usullaridan foydalanishga imkon beradi. Bu maqsadlar bilimlar tizimini o'zgartirishda, qadriyatlar paradigmasida, shaxsiy fazilatlar majmuasida, odamlarning xulq-atvorida ifodalanadi.

Talabalarning ilmiy ishlardagi ishtiroki bugungi oliy ta'limning ajralmas qismidir. Sergey Iosofovich Gessen ta'kidlashicha: "Ilmiy ta'limning so'nggi maqsadi bu ilmiy tadqiqot usulini o'zlashtirilishi bo'lib, unga talabani mustaqil tadqiqot ishiga jalb etish orqaligina erishish mumkin. Binobarin, oliy ilmiy maktab, eng avvalo, ilmiy tadqiqot markazi, o'qituvchi – faol tadqiqotchi, talaba – ilmiy ish ishtirokchisi, o'quv joyi – auditoriya, ilmiy laboratoriya – yangi ilmiy bilim va haqiqatlar ochib boriladigan maskan bo'lishi kerak. Oliy ilmiy maktab - bu ta'lim va tadqiqot birlashadigan joydir"[3]. Shunday qilib, institutda o'qitish va ilmiy tadqiqotlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lishi kerak.

Talabalarni ilmiy faoliyatga jalb qilish ko'rsatkichlarining nisbati va unda o'qituvchilarning ishtirok etish fakti talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etilishi bilan to'g'ridan-to'g'ri proporsional hisoblangan o'qituvchilarning ilmiy tadqiqotchilik faoliyatiga bog'liqligini aniqlash imkonini beradi. Davlat grantlari, loyihalarda qatnashish uchun arizalar topshirish, xo'jalik shartnoma ishlarida qatnashish, ixtiroga patent olish, dasturiy mahsulotlarni ro'yxatdan o'tkazish, ilmiy ish rahbari sifatida ilmiy tadqiqotchilik faoliyatida ishtirok etgan o'qituvchilarning aksariyati tadqiqotchilik ishlariga talabalarni jalb qilishga harakat qiladilar. Umuman olganda, oliy talim muassasa o'qituvchilari talabalarni tadqiqot faoliyatiga jalb qilish zarur deb hisoblaydilar. Lekin, shu bilan birga, ko'pchilik o'qituvchilar faqat konferensiyalarda qatnashish va maqola/tezis, referat, kurs ishi yozishni talabalarning fanga kirishining asosiy shakli sifatida ko'rishadi. Talabalarning ilmiy salohiyati pastligiga ishonch hosil qilgan o'qituvchilar buning oldini olish choralarini izlaydilar. Shuning uchun har xil turdagi tadqiqot loyihalarida ishtirok etayotgan o'qituvchilar talabalarni ularga jalb qilishni xohlaydilar. Oliy ta'lim

muassasa o'qituvchilarida maqola va konferensiyalar ilmiy tadqiqot ishlarining asosiy (agar yagona bo'lmasa) shakllari ekanligiga ishonchini shakllantirish manbalarini aniqlash zarur.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilarning talabalarning fandagi ishtirokining asosiy shakli konferensiyalarda qatnashish va maqolalar yozish bo'lishi kerakligiga ikki omil ta'sir ko'rsatdi: 1) talabalarning jiddiy ilmiy loyihalarda ishtirok etishi tadqiqotchilardan qo'shimcha vaqt talab etadi; 2) talabalarning jiddiy ilmiy loyihalarda ishtirok etishlari ularning jiddiy ilmiy hissi yo'qligi sababli mantiqqa to'g'ri kelmaydi. Bu ikkala holat ham bir-biriga bog'liq.

Xulosa qilib aytganda, yosh avlodga yangi zamonga mos hayotiy maqsadlarini belgilashda chalg'imaslik, axborot makonida o'zlariga kerakli manzilni aql-idrok, halollik va mehnatsevarlik bilan topish, Vatan taraqqiyoti va yurt faravonligiga o'z hissasini qo'shish kabi fazilatlarni tarbiyalash pedagoglarning burchidir. Shunday ekan, nafaqat bo'lajak o'qituvchilarda, balki barcha ta'lim sohasi vakillarida raqamli kompetensiyani rivojlantirish bugungi davr talabidir. Buning uchun har bir o'qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalar va AKTdan keng foydalangan holda ta'lim jarayonini tashkil etishi, o'z ustida muntazam ishlashi, ya'ni umrbod ta'lim olishi, o'z kasbining "mohir ustasi" ga aylanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jalilova D.U. Boshlangich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi tarkibiy qismlarining mazmun-mohiyati. O'zbekistonda ilm-fanning rivojlanish istiqbollari" Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani 2022-yil 30-noyabr. 839-842-betlar. (<https://doi.org/10.5281/zenodo.7377842>)
2. Jalilova D.U. Psychological And Technological Features of Increasing the Efficiency of Educational Activity of Talented Students in Presidential Schools. Journal of Pedagogical Inventions and Practices ISSN NO: 2770-2367 (<https://zienjournals.com>).
3. https://t.me/jalilova_dilshoda_2292